KOOPERATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI AUTODIDAKTIK RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sabirova Muxarramoy Nurbek qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
mukharramoysabirova@gmail.com

Maqolada kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini autodidaktik rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Unda zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogning mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy kompetensiyalarini muntazam takomillashtirish hamda hamkorlik muhitida rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Autodidaktik rivojlanishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va samarali mexanizmlari kooperativ ta’lim tamoyillari bilan uzviy bog‘liqlikda ochib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy mahoratni shakllantirishda o‘zini o‘zi rivojlantirish, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, tajriba almashish va jamoaviy faoliyatning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari kooperativ yondashuv va autodidaktik ta’lim uyg‘unligi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mustaqilligi, ijodiy faolligi va pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, kooperativ yondashuv, autodidaktik rivojlanish, bo‘lajak pedagog, kasbiy mahorat, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta’lim, refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogik faoliyat, hamkorlik.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АВТОДИДАКТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ КООПЕРАТИВНОГО ПОДХОДА

В статье освещаются теоретические и методологические основы автодидактического развития профессионального мастерства будущих педагогов на основе кооперативного подхода. Анализируются возможности самостоятельного приобретения знаний будущими педагогами, анализа собственной деятельности, систематического совершенствования профессиональных компетенций, а также развития в условиях сотрудничества в современном образовательном процессе. Раскрываются содержание автодидактического развития, педагогические условия и эффективные механизмы его реализации во взаимосвязи с принципами кооперативного обучения. Особое внимание уделяется значению саморазвития, рефлексии, самооценки, обмена опытом и коллективной деятельности в формировании профессионального мастерства будущих педагогов. Результаты исследования показывают, что интеграция кооперативного подхода и автодидактического обучения может служить эффективной методологической основой для развития профессиональной самостоятельности, творческой активности и педагогической компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: *высшее образование, кооперативный подход, автодидактическое развитие, будущий педагог, профессиональное мастерство, профессиональная компетентность, самостоятельное обучение, рефлексия, саморазвитие, педагогическая деятельность, сотрудничество.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE AUTODIDACTIC DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS’ PROFESSIONAL SKILLS THROUGH A COOPERATIVE APPROACH

The article examines the theoretical and methodological foundations of the autodidactic development of future teachers’ professional mastery based on a cooperative approach. It analyzes the opportunities for future teachers to acquire knowledge independently, reflect on and analyze their professional activities, systematically improve their professional competencies, and develop within a collaborative educational environment. The content of autodidactic development, its pedagogical conditions, and effective mechanisms are revealed in close connection with the principles of cooperative learning. Particular attention is paid to the importance of self-development, reflection, self-assessment, experience sharing, and collaborative activities in developing the professional mastery of future teachers. The findings demonstrate that the

integration of the cooperative approach and autodidactic learning can serve as an effective methodological foundation for developing future teachers’ professional autonomy, creative engagement, and pedagogical competence.

Keywords: *higher education, cooperative approach, autodidactic development, future teacher, professional mastery, professional competence, self-directed learning, reflection, self-development, pedagogical activity, collaboration.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida pedagogdan faqat bilim berish emas, balki doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, yangiliklarni o‘zlashtirish va kasbiy mahoratini mustaqil rivojlantirish talab etilmoqda. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda autodidaktik rivojlanish, ya’ni mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kooperativ yondashuv bo‘lajak pedagoglarning o‘zaro hamkorlik qilishi, tajriba almashishi, fikr va tajribalarini tahlil qilishi orqali kasbiy rivojlanishiga imkon yaratadi. Kooperativ va autodidaktik yondashuvlarning uyg‘unligi talabaning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib, uning mustaqilligi, ijodkorligi, refleksivligi va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini autodidaktik rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va takomillashtirish zamonaviy oliy pedagogik ta’limning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammoning bugungi bosqichdagi o‘ziga xos jihati shundaki, pedagogdan tayyor bilimlarni egallash bilan birga, o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil tahlil qilish, yangi bilim va tajribalarni izlab topish hamda kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda takomillashtirib borish talab etilmoqda. Shu sababli bo‘lajak pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirishni faqat an’anaviy ta’lim jarayoni bilan chegaralab qo‘ymasdan, uning mustaqil va hamkorlikdagi rivojlanishini ta’minlaydigan yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarur.

O‘zbek pedagogikasida pedagogik mahorat masalasi A.Xoliqov, N.N.Azizxo‘jayeva, O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.J.Ishmuhamedov, N.A.Muslimov kabi olimlarning tadqiqot va o‘quv-metodik ishlarida muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, A.Xoliqov pedagogik mahoratni o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi bilan bog‘liq murakkab va rivojlanuvchan sifat sifatida talqin etib, uning nazariy-metodologik asoslari, tarkibiy qismlari hamda kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lish xususiyatlarini yoritgan. Muallif pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarning kasbiy mahoratni egallashi va uni uzluksiz takomillashtirib borishi zarurligiga alohida e’tibor qaratadi.[1] Bu qarashlar bizning tadqiqotimiz uchun muhim nazariy asos bo‘lib, kasbiy mahoratni bir martalik natija emas, balki muntazam rivojlanib boradigan jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

N.N.Azizxo‘jayeva tomonidan pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning o‘zaro bog‘liqligi yoritilib, pedagog faoliyatini samarali tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik jarayonni loyihalash va ta’lim oluvchining faolligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan.[2] O‘.Tolipov va M.Usmonboyeva esa pedagogik texnologiyalarning amaliy imkoniyatlarini ochib berib, ta’lim jarayonida interfaol, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishning ahamiyatini asoslaydi.[3] Mazkur qarashlar kooperativ yondashuvning metodik mohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega, chunki kooperativ ta’lim ham talabaning faol ishtiroki, o‘zaro muloqoti, tajriba almashishi va umumiy natija uchun mas’uliyatini nazarda tutadi.

R.J.Ishmuhamedovning innovatsion pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlarida ta’lim oluvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi masalalariga katta ahamiyat beriladi.[4] N.A.Muslimovning kasbiy ta’lim pedagogikasiga oid ishlari esa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish va uni amaliy faoliyatga tayyorlash masalalarini yoritadi.[5] Mazkur tadqiqotlar bizga bo‘lajak pedagogning kasbiy mahoratini faqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini boshqarish va kasbiy rivojlanishga tayyorlik bilan bog‘liq yaxlit sifat sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda esa mazkur masala kooperativ ta’lim va self-directed learning, ya’ni o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish konsepsiyalari asosida chuqurroq o‘rganilgan. D.W.Johnson va R.T.Johnson kooperativ ta’limni ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi bilan izohlab, uning asosiy shartlarini ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, individual javobgarlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy ko‘nikmalar va guruh faoliyatini tahlil qilish bilan bog‘laydi.[6] Mazkur yondashuv bizning mavzuimiz nuqtayi nazaridan ayniqsa muhim, chunki kooperativ faoliyat jarayonida talaba bir tomondan guruhning umumiy natijasiga hissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan o‘z bilim va faoliyati uchun shaxsiy javobgarlikni ham saqlab qoladi.

M.B.Postholmning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotida konstruktiv yondashuv asosida bilimning ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanishi ta’kidlanadi. Muallif o‘qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati kasbiy rivojlanishning muhim manbalaridan biri ekanini ko‘rsatadi.[7] Bu fikr kooperativ yondashuvni bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga tatbiq etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki pedagogik mahorat faqat individual tajriba orqali emas, balki muloqot, hamkorlik, fikr almashish va boshqalarning tajribasini tahlil qilish orqali ham shakllanadi.

Autodidaktik rivojlanish nuqtayi nazaridan N.Sergeeva va A.Guzevaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Mualliflar autodidaktik yondashuvni talabaning mustaqil o‘rganishga tayyorligi, o‘z ta’lim faoliyatini boshqarishi va o‘z bilimlarini muntazam takomillashtirib borishi bilan bog‘laydi.[8] Bu yondashuv bo‘lajak pedagogning kasbiy rivojlanishida tashqi nazoratdan ichki motivatsiyaga, tayyor bilimni qabul qilishdan mustaqil izlanishga o‘tishni nazarda tutadi. Shu jihatdan autodidaktik rivojlanish bizning tadqiqotimizda bo‘lajak pedagogning **“o‘z kasbiy rivojlanishining faol subyekti”** sifatida shakllanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

M.Thurlings va P.den Brok tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish faoliyatlari, jumladan, hamkorlik, coaching va boshqa rivojlantiruvchi faoliyatlarning natijalari tahlil qilingan [9]. Tadqiqotchilar o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi muntazam, amaliyot bilan bog‘langan va faol ishtirokka asoslangan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Bu holat autodidaktik rivojlanishning uzluksizlik, amaliy yo‘nalganlik va refleksivlik kabi xususiyatlarini kooperativ ta’lim bilan bog‘lash imkonini beradi.

A.Letina va M.Vasilj tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kooperativ ta’limni amaliyotga joriy etish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar kooperativ ta’limni samarali tashkil etish uchun bo‘lajak pedagoglarning tegishli bilim, ko‘nikma va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi [10]. Bu esa kooperativ yondashuvni shunchaki guruhlarga bo‘lib ishlash usuli sifatida emas, balki aniq pedagogik maqsad, individual mas’uliyat, o‘zaro hamkorlik va refleksiyaga asoslangan tizimli faoliyat sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

G.Sekano, D.Laubscher va R.Bailey tomonidan texnologiya asosidagi kooperativ ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotda hamkorlikdagi o‘rganishning o‘qituvchilarda o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish (self-directed learning) ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko‘rsatilgan [11]. Tadqiqotchilar zamonaviy pedagogning kasbiy rivojlanishi moslashuvchan, uzluksiz va amaliy faoliyat bilan bog‘langan bo‘lishi kerakligini qayd etadi. Ushbu xulosa kooperativ va autodidaktik rivojlanishning bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi: kooperativ muhit talabaning ijtimoiy-kommunikativ faolligini kuchaytirsa, autodidaktik faoliyat uning individual kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqarishiga imkon beradi.

Pedagogik mahorat, kooperativ ta’lim va autodidaktik rivojlanish alohida yo‘nalishlarda yetarlicha o‘rganilgan. Biroq ushbu tushunchalarning yagona pedagogik tizim sifatida, ayniqsa bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish kontekstida o‘zaro integratsiyasi yetarlicha ochib berilmagan. Mavjud tadqiqotlarda kooperativ ta’lim ko‘proq jamoaviy o‘rganish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida, autodidaktik yondashuv esa mustaqil va o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Bizning tadqiqotimizda esa ularning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak pedagogning o‘z kasbiy rivojlanishini mustaqil rejalashtirishi, hamkorlikda bilim va tajriba almashishi, o‘z faoliyatini refleksiv baholashi va natijada kasbiy mahoratini izchil takomillashtirishi nuqtayi nazaridan qaraladi.

Tahlil va olingan natijalar. O‘rganilgan ilmiy manbalar va mavjud pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Pedagogik faoliyatning zamonaviy talablari bo‘lajak mutaxassisdan mustaqil izlanish, o‘z faoliyatini baholash, xatolarini tahlil qilish va kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borishni talab etadi. Shu sababli autodidaktik rivojlanish bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, autodidaktik rivojlanishning samaradorligi talabaning mustaqil ta’lim olish istagi bilangina emas, balki uning ta’lim jarayonida qanday muhitda faoliyat yuritishi bilan ham bog‘liq. Xususan, kooperativ muhitda talaba o‘z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning tajribasini o‘rganish, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish va o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon mustaqil ta’lim va jamoaviy o‘rganishning bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida kooperativ yondashuv va autodidaktik rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi: mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro tajriba almashish, individual mas’uliyat va kasbiy motivatsiya. Mazkur komponentlarning birgalikda shakllanishi bo‘lajak pedagogning kasbiy mahoratini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.(1-jadval)

1-jadval.

Kooperativ yondashuvning bo‘lajak pedagoglar autodidaktik rivojlanishiga ta’siri

Yo‘nalish	Kooperativ yondashuvning ta’siri	Kutiladigan natija
Mustaqil ta’lim	Talabani izlanishga undaydi	Mustaqil bilim olish ko‘nikmasi rivojlanadi
Refleksiya	O‘zaro fikr va baholashni ta’minlaydi	O‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati shakllanadi
Individual mas’uliyat	Har bir ishtirokchining shaxsiy hissasini talab qiladi	Mas’uliyat va mustaqillik ortadi
Tajriba almashish	Turli fikr va tajribalar bilan tanishtiradi	Kasbiy dunyoqarash kengayadi
Muloqot	Jamoaviy muhokamani kuchaytiradi	Kommunikativ kompetensiya rivojlanadi
O‘z-o‘zini baholash	Guruhdagi faoliyat natijalarini tahlil qilishga imkon beradi	Kasbiy kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish qobiliyati rivojlanadi
Ijodkorlik	Turli yechimlarni izlashga undaydi	Pedagogik muammolarga ijodiy yondashuv shakllanadi

Shuningdek, tahlil jarayonida kooperativ yondashuvni oddiy guruhli ishlash bilan tenglashtirib bo‘lmasligi aniqlandi. Samarali kooperativ ta’limda har bir talabaning shaxsiy mas’uliyati, umumiy maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati, o‘zaro yordam va faol muloqoti ta’minlanishi lozim. Ana shundagina guruhdagi hamkorlik individual rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Olingan natijalarga ko‘ra, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini autodidaktik rivojlantirishda “mustaqil izlanish – hamkorlikdagi faoliyat – refleksiya – o‘z-o‘zini baholash – kasbiy takomillashuv” izchilligi muhim ahamiyatga ega. Autodidaktika — shaxsning o‘z tashabbusi va ehtiyoji asosida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mustaqil egallashi va o‘zini rivojlantirish jarayoni.Talaba avvalo o‘zining bilim va kasbiy ehtiyojlarini anglaydi, mustaqil ravishda zarur axborotni izlaydi, uni hamkorlik muhitida muhokama qiladi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Mazkur jarayonning muntazam takrorlanishi kasbiy rivojlanishni uzluksiz jarayonga aylantiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari kooperativ yondashuv va autodidaktik rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak pedagoglarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, refleksivlik, kommunikativlik, mas’uliyat va ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun samarali imkoniyat yaratishini ko‘rsatdi. Bu esa kooperativ yondashuvni bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini autodidaktik rivojlantirishning muhim pedagogik sharti sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Munozara. Tadqiqot davomida o‘rganilgan ilmiy manbalar va tahlil natijalari kooperativ yondashuv hamda autodidaktik rivojlanishning bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishdagi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi. An’anaviy ta’limda talabaning bilimni tayyor holda qabul qilishi ustun bo‘lsa, mazkur yondashuvda u o‘z kasbiy rivojlanishining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa zamonaviy pedagogga qo‘yilayotgan mustaqil fikrlash, izlanish va uzluksiz rivojlanish talablariga mos keladi.

V.Tünkler tadqiqotida kooperativ ta’limning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi empirik jihatdan asoslangan. Muallif kooperativ ta’lim an’anaviy guruhli ishlashga nisbatan yuqoriroq natija berishini aniqlagan [12]. P.Beach esa o‘qituvchilarning o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishini kasbiy rivojlanishning muhim shakli sifatida tadqiq etib, self-directed learning uchun nazariy modelni taklif qilgan [13]. J.Gallo-Fox va K.Scantlebury tadqiqotlarida esa hamkorlikda o‘qitish jarayonining pedagogik refleksiya va kasbiy rivojlanishga ta’siri ko‘rsatilgan [14]. Ushbu qarashlar bizning tadqiqotimizdagi **kooperativ hamkorlik va autodidaktik rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligi** haqidagi xulosalarni ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Kooperativ yondashuvning muhim jihati shundaki, u mustaqil ta’limni jamoaviy faoliyat bilan qarama-qarshi qo‘ymaydi, aksincha, ularni bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida birlashtiradi. Talaba mustaqil ravishda ma’lumot izlaydi, o‘z fikrini shakllantiradi va uni guruh muhokamasida asoslaydi. Boshqa ishtirokchilarning fikrlari bilan tanishish esa o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqish va bilimlarini boyitish imkonini beradi. Shu ma’noda, kooperativ muhit autodidaktik rivojlanish uchun tabiiy pedagogik sharoit yaratadi.

Tahlil qilingan tadqiqotlarda kooperativ ta’limning ijtimoiy muloqot, hamkorlik, individual mas’uliyat va refleksiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari qayd etilgan. Biroq mazkur imkoniyatlardan samarali

foydalanish kooperativ faoliyatni qanday tashkil etishga bevosita bog‘liq. Faqat talabalarni guruhlarga ajratishning o‘zi kooperativ ta’limni ta’minlamaydi. Har bir talabaning aniq vazifaga ega bo‘lishi, umumiy natijaga shaxsiy hissasini qo‘shishi, o‘z faoliyatini baholashi va guruh a’zolari bilan fikr almashishi zarur.

Autodidaktik rivojlanish nuqtayi nazaridan esa talabaning ichki motivatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Agar talaba o‘zining kasbiy ehtiyojlarini anglab, mustaqil ravishda bilim olish zaruratini his qilsa, uning o‘z ustida ishlashi barqaror tus oladi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida mustaqil topshiriqlar berish bilan cheklanmasdan, talabaning o‘z rivojlanish maqsadini belgilashi, natijasini baholashi va keyingi faoliyatini rejalashtirishiga imkon berish lozim.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, kooperativ yondashuv va autodidaktik rivojlanishning uyg‘unligi uchta asosiy natijani ta’minlaydi: **birinchidan**, talabaning mustaqil bilim olish faolligi ortadi; **ikkinchidan**, hamkorlik va muloqot orqali kasbiy tajriba boyiydi; **uchinchidan**, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash orqali talaba o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishini mustaqil belgilashga o‘rganadi. Natijada kasbiy mahorat faqat o‘quv jarayonida egallangan bilimlar yig‘indisi emas, balki muntazam ravishda rivojlanib boradigan shaxsiy-kasbiy sifat sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, talabalarning mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasining turlicha bo‘lishi, guruhdagi faollikning bir xil taqsimlanmasligi, vaqt va baholash bilan bog‘liq qiyinchiliklar kooperativ faoliyat samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va refleksiv faoliyatni tashkil etuvchi subyekt sifatida ishtirok etishi muhim.

Umuman, munozara natijalari kooperativ yondashuvni autodidaktik rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun samarali imkoniyat yaratishini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv talabaning **“men uchun o‘qituvchi o‘rganadi”** degan passiv pozitsiyadan **“men o‘z kasbiy rivojlanishim uchun mas’ulman”** degan faol pozitsiyaga o‘tishiga yordam beradi. Shu jihatdan, kooperativ-autodidaktik yondashuv bo‘lajak pedagogni nafaqat kasbiy faoliyatga, balki butun pedagogik faoliyati davomida uzluksiz o‘rganish va o‘zini rivojlantirishga tayyorlashning muhim vositasi sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqot natijalari kooperativ yondashuv va autodidaktik rivojlanishning uyg‘unligi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Mustaqil izlanish, hamkorlik, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash talabaning kasbiy mustaqilligi, mas’uliyati, ijodkorligi va kompetentligini rivojlantiradi.

Shu bois bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kooperativ faoliyatni autodidaktik ta’lim bilan uyg‘unlashtirish, talabaning o‘z kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqarishiga sharoit yaratish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
3. Johnson D.W., Johnson R.T. The use of cooperative procedures in teacher education and professional development // Journal of Education for Teaching. – 2017. – Vol. 43, No. 3. – P. 284–295. – DOI: 10.1080/02607476.2017.1328023.
4. Postholm M.B. Teachers’ professional development: a theoretical review // Educational Research. – 2012. – Vol. 54, No. 4. – P. 405–429. – DOI: 10.1080/00131881.2012.734725.
5. Sergeeva N., Guzeva A. Autodidactic approach: forming self-directed EFL learning readiness // Language and Culture. – 2019. – No. 11. – P. 96–104. – DOI: 10.17223/24109266/11/10.
6. Thurlings M.C.G., den Brok P.J. Learning outcomes of teacher professional development activities: a meta-study // Educational Review. – 2017. – Vol. 69, No. 5. – P. 554–576. – DOI: 10.1080/00131911.2017.1281226.
7. Letina A., Vasilj M. Challenges of implementation of cooperative learning in initial teacher education // Školski vjesnik. – 2021. – Vol. 70, No. 1. – P. 371–397. – DOI: 10.38003/sv.70.1.12.
8. Sekano G., Laubscher D., Bailey R. Challenging traditional teacher professional development by implementing technology-supported cooperative learning // International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2023. – Vol. 22, No. 3. – DOI: 10.26803/ijlter.22.3.31.
9. Thurlings M.C.G., den Brok P.J. Learning outcomes of teacher professional development activities: a meta-study // Educational Review. – 2017. – Vol. 69, No. 5. – P. 554–576. – DOI: 10.1080/00131911.2017.1281226.

10.Letina A., Vasilj M. Challenges of implementation of cooperative learning in initial teacher education // Školski vjesnik. – 2021. – Vol. 70, No. 1. – P. 371–397. – DOI: 10.38003/sv.70.1.12.

11. Sekano G., Laubscher D., Bailey R. Challenging traditional teacher professional development by implementing technology-supported cooperative learning // *I*nternational Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2023. – Vol. 22, No. 3. – P. 548–566. – DOI: 10.26803/ijlter.22.3.31.

12.Tünkler V. İşbirlikli Öğrenmenin Sosyal Bilgiler Öğretmen Adaylarının Mesleki Bilgi ve Becerilerine Etkisi // Kastamonu Education Journal. – 2020. – Vol. 28, No. 2. – P. 793–805. – DOI: 10.24106/kefdergi.702952.

13.Beach P. Self-directed online learning: A theoretical model for understanding elementary teachers’ online learning experiences // Teaching and Teacher Education. – 2017. – Vol. 61. – P. 60–72. – DOI: 10.1016/j.tate.2016.10.007.

14.Gallo-Fox J., Scantlebury K. Coteaching as professional development for cooperating teachers // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 60. – P. 191–202. – DOI: 10.1016/j.tate.2016.08.007.